

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

**MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI
VA HUQUQ KAFEDRASI**

SAIDOV ZOHID VICHNING

“5141500 Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Hozirgi zamonning o‘ziga xos xususiyatlari o‘zgarishi sharoitida
milliy o‘zlikni anglash muammolari” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ F.Qanoatova

“Himoyaga tavsiya etildi”
Tarix fakulteti dekani
_____ A.Hasanov
_____ 2014 yil

Qarshi-2014

M U N D A R I J A

KIRISH.	3
 I BOB: SHAXSNING O`Z-O`ZINI ANGLASHI VA MILLIY O`ZLIKNI ANGLASH DIALEKTIKASI	
1.1 Barkamol shaxshihg o`z o`zini anglash tuyg`si.	7
1.2 Milliy o`zlikni anglash- ma`naviy taraqqiyot omili.	14
 II BOB: MILLIY O`ZLIKNI ANGLASH JARAYONIDA MILLIY MADAVIY MEROSNING AHAMIYATI.	
2.1 Yoshlar ongida milliy o`zlikni anglashni shakllantirishda madaviy merosning o`rni.	27
2.2 Yoshlar ongida milliy o`zlikni anglash tuyg`usini ma`naviy merosga vorislik asosida shakllantirish yo`llari.	39
 XULOSA.	61
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.	64

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamonning o`ziga xos xususiyatlarining shiddat bilan o`zgarib borayotgan sharoitida O`zbekiston davlat mustaqilligini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma`naviy zaminlarini barqarorlashtirishga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg`un holda ko`radigan, har jihatdan milliy o`zligini anglagan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi har doim dolzarb masala bo`lib qolaveradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: O`zbekistonda fuqaroviy jamiyat a`zolarini yuksak ma`naviyatli insonlar qilib tarbiyalashda ular ongida milliy o`zlikni shakllantirishning o`ziga xos o`rnini asoslab, uni yanada mustahkamlashning yo`llarini o`rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

- jamiyatni modernizatsiya qilinish jarayonida O`zbekistonda milliy o`zlikning g`oyaviy imkoniyatlarini har tomonlama o`rganish zarurligini asoslab berish;
- milliy ozlikni anglash tushunchasining mohiyatini kengroq asoslab berish;
- jamiyat a`zolarining milliy ozligini anglashini tiklash va rivojlantirishda I.Karimovning Milliy-ma`naviy tiklanish kontseptsiyasining katta ahamiyat kasb etishini yoritish;
- o`zlikni anglashning madaniy meros bilan dialektik aloqadorligining o`ziga xosligini ko`rsatish;
- yoshlar ongida tarixiy xotirani shakllantirishning ustivor yo`nalishlarini aniqlashdan iborat;
- milliy g`oyaning milliy ozlikni anglashning nufuzi va mavqeyini yanada oshirishdagi imkoniyatlarini ko`rsatish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiyligi va amaliy ahamiyati: Ishda milliy ozlikni anglash tushunchasi, uning fuqaroviy jamiyat a`zolarini yuksak ma`naviyatli insonlar qilib tarbiyalashdagi o`ziga xos o`rniga ega ekanligi

haqida tegishli xulosalar chiqarish uchun keltirilgan bir qator ma'lumotlardan kadrlar malakasini oshirishda foydalanish mumkin.

O'zbekiston fuqarolarning milliy ozlikni anglashlari bevosita madaniy meros ta'sirchanligini mustahkamlash bilan dialektik aloqador ekanligi o'rganildi, tegishli xulosalar chiqarildi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. Mavzuga birinchi navbatda Prezidentimiz I.Karimov asarlaridan hamda ushbu mavzuga oid bir qancha mualliflar qarashlaridan, darsliklar, o'quv-qo'llanmalar, jurnallar va kundalik matbuotdagi maqolalar, internet materiallari va qo'shimcha adabiyotlardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy-uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Prezident Islom Karimov asarlari tashkil etadi. Nazariy asoslari sifatida bir qator ilmiy, ilmiy-ommabop asarlardan foydalandik. Analiz, sintez, tarixiylik yondashuvi, ob'ektivlik, xolislik kabi ilmiy-tadqiqot uslublari qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishning approbatsiyasi. Qarshi davlat yniversiteti Miliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida faoliyat ko'rsatayotgan "Milliy g'oya targ'ibotchilari" to'garagida mavzu bo'yicha ma'ruza qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi: Ish kirish, 2 ta bob 4 bo'lim, xulosa. tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB: SHAXSNING O`Z-O`ZINI AHGLASHI VA MILLIY O`ZLIKNI ANGLASH DIALEKTIKASI

1.1 Barkamol shaxshihg o`z o`zini anglash jarayoni.

O`zbekiston mustaqil davlat sifatida rivojlanishining o`ziga xos yangi bosqichida dadil qadam tashlamoqda. Bu davr, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tub o`zgarishlarga olib kelmoqda. Bu xalqning ma'naviy-ruhiy tiklanishiga e'tibor qaratish muhim vazifalardan deb belgilandi va mustaqil davlat siyosatining ustivor yo`nalishiga aylandi. Chunki, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqning ma'naviyati va ma'daniyati, uning haqiqiy tarixi va o`ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi jamiyatimizning yangilash va taraqqiy ettirish yo`lidagi muvofaqiyatli ravishda olg`a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo`lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir"¹.

O`zbekistonning yangi jamiyat qurish borasida amalga oshirishi zarur bo`lgan vazifalari qatorida shaxs milliy o`zligini anglash jarayonini rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi, mustaqil O`zbekiston davlat siyosatida, uning milliy taraqqiyotiga erishishida va mustaqillikni mustahkamlashda o`zligini anglagan shaxslar muhim o`rin tutadi. Prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek, "Bu davr ma'naviy uyg`onish va millat o`zligini anglashning o`sishi davridir. Bu-ozodlik ruhi bilan o`z kuchlariga, mamlakatning, xalqning yorqin kelajagiga ishonch bilan to`lib toshgan davridir"².

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o`z-o`zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqeyelik sha'n, qadr-qimmat, obro'e'tibor, or-nomus orqali namoyon bo`lishini ko'rsatadi. Hayotning ma'no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o`zlikni anglashdan boshlanadi."O`zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini,

¹ Karimov I. A.. O`zbekiston iqtisodiy islohatlarini chuqurlashtirish yo`lida //Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir//T.3.- T. 1995 y. 162b.

² O`sha joyda, 168-bet

kimlarning vorisi ekanligamizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o'zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman"¹, deydi I.A.Karimov.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish. davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish, avvalambor, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oya atrofida jipslasha olishi, o'zini xalq, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab yetishiga ham bog'liq. Zero, buyuk bobokalonimiz Amir Temur o'git berganlaridek: "Birliksiz kuch bo'lmas". Binobarin, "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" qurishdek ulug' ish, avvalo, o'zlikni anglamagan joyda amalga oshmaydi. Millat birligida insonni o'zligini anglash omili alohida o'ringa ega. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: "Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va ximoyachisiga aylanadi. Demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson xaq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi mumkin bo'ladi. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib fuqarosi bo'la oladi"².

Bunda tilga olingan insoniy fazilatlar insonning ma'yaviy olamini tashkil etadi. Ma'naviyat esa fikr, so'z va ish birligida namoyon bo'ladi. O'zligini anglamagan odamda imon va e'tiqod zaif bo'ladi.

"Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" g'oyada mujassam bo'lgan milliy g'oya oddiy davat emas, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanmog'i uchun, u o'zligini anglagan har bir fuqaroning ongidan chuqur joy olmog'i va yashash tamoyiliga aylanmogi lozim.

Demak mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish davrida o'zlikni anglashning o'ziga xos ko'rinishlarini anglamasdan ma'naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini aniqlab bo'lmaydi.

¹ Karimov I.A. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8.- T.: O'zbekiston 2000, 223-b

² Karimov I. A.. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish -bizning bosh maqsadimizdir".- T.: O'zbekiston 2012. 8 - b

Jamiyat ma'lum bir hududda jamlangan odamlarning oddiy yigindisi emas. Inson martabasiga xos bo'lmagan o'zligidan mahrum, tarixiy xotirasi zaif, o'zining kelib chiqishi va kimlarning vorisi, avlodlari ekanligini anglamagan, bilmagan odamlarni xalqimiz "to'da", "olomon" deb ataydi;

Yuksak rivojlangan jamiyat esa o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e'tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o'zgalar va butun borliq oldidagi mas'uliyat tuyg'usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. "Men kimman?", "Bu yorug' dunyoga nima uchun keldim?", "Menga ato etilgan buyuk ne'mat -hayotimni nimalarga safarbar etmogim lozim?". Inson borki, ertami kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo'l oladi. Bu yo'lni o'zlikni anglash deb aytish mumkin. O'zligini anglagan yoki angalay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko'tariladi. Demak o'zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, alohida «meni» bilan bog'liq.

"Kimki o'zligini tanisa, robbini taniydi". Bu hadisda buyuk xikmat yashiringan. O'ni bugungi kun muammolari nuqtai nazaridan quyidagicha talqin etish mumkin: har bir inson o'zi intilmasa, maqsadlar qanchalik ulug' bo'lmasin, birorbir natija bermaydi. Shuning uchun ham islom ahli, mutasavvif allomalar insonni "olam mexrobi" deb bilganlar.

Insoniyat jamiyati paydo bo'libdiki, turli xalq allomalari insonni o'zlikni anglashga da'vat etadi. O'zlikni anglash borasidagi Sharq va Garb allomalarining fikrlari milliy g'oya va o'zlikni anglash bilan chambarchas bog'liq ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Delfadagi Appolon ibodatxonasining devorlariga o'yib yozilgan va an'ana bo'yicha yetti yunon donishmandlaridan biri spartalik Xilonga tegishli deb hisoblangan "O'zligingni angla" ishori qadimgi yunon falsafasining o'zak masalasi bo'lib qoldi. Yunon mutafakkirlarini bu borada izlanishga da'vat etdi. Eramizdan avvalgi V asrda Protagor, "inson barcha narsalarning o'lchovidir", degan fikrni ilgari surdi. Suqrot uchun esa "o'zligingni angla" hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. O'zligini anglagan inson ma'naviy

yuksalishga erishadi, har qanday sharoitda ezgulikka choglanadi. Shu nuqtai nazardan, inson ruhiy quvvatining ramziga aylangan Suqrotning hayoti va o'limi hammamizga saboq bo'la oladi. Sharqu Garb allomalari o'zlarini va o'z davrlarini anglashga harakat qilishar ekan, takror va takror Suqrotga murojaat etishgan. Suqrot davri bilan bugungi kunni qariyb 2,5 ming yil ajratib turgan bo'lsada, biz ham yana bir bor bu ulug` siymoni eslasak foydadan holi bo'lmas. Suqrot bir guruh kishilarning fitnasi tufayli fuqarolik me'yorlarini, yoshlar tarbiyasini buzganlikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm etilgan edi. Hukm ijrosini kutayotgan Suqrotga shogirdlari qamoqdan qochishni taklif etishadi. Garchi hukm adolatsiz bo'lsada, Suqrotning fikricha, har qanday, hatto eng yuksak va adolatli maqsad ham unga erishmoq yo'lidagi past va jinoiy vositalarni oqlamaydi. "Bizni o'ldirishga qodir bo'lgan ko'pchilik bu fikrga qo'ishladimi, qo'ishlmaydimi, bundan biz ko'proq yoki kamroq ozor chekamizmi, baribir, adolatsiz ish uni qilgan qilig`i uchun har qanday sharoitda sharmandalikdir", deydi u shogirdiga. Yoki bunday qaraylik, agar biz bu yerdan juftakni rostlashga shaylansagu, Qonun va Davlat ro'paramizdan chiqsada, so'rasa: "Aytchi, Suqrot, nima qilmoqchisan? O'z qilmoqchi bo'lgan ishing bilan bizni, Qonunlar va butun Davlatni halok qilmoqchimisan? Yoki sud hukmlari hech qanday kuchga ega bo'lmagan, balki ular alohida odamlarning istagi bilan bekor qilinadigan bo'lsa, davlat butun va beziyon qolishi mumkin deb o'ylaysanmi?". O'z yurtini sevgan va chinakam vatanparvar bo'lgan Suqrot uchun qamoqdan qochish butun hayoti davomida o'zi rioya etgan qoidalarga, o'zining umr ishiga va Vataniga xiyonat bo'lar edi. Afina davlatidagi u yoki bu tartiblar bilan kelishmagan bo'lsada, chinakam vatansarvar bo'lgan Suqrot o'limni afzal ko'radi.

"O'zini anglagan inson, degan edi u, o'zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug`ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har 'qanday xato va baxtsizliklardan holi bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga

odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi"¹.

Hazrat Navoiyning "El netib topqay menikim, men o'zimni topmadim", - degan so'zlari bugungi kunda ham chuqur ma'no kasb etadi.

Jamiyatning tayanchi - oddiy inson. Shuning uchun ham yurtboshimiz "Tafakkur" jurnali bosh muharriri bilan suhbatda "Mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari va qarashlari yuzaga chiqishi kerak?", degan savol qo'yib, shunday javob bergan edi: "Dastavval O'zbekistonda yashayotgan, o'z taqdiri timsolida ming-minglab kishilarning taqdirini mujassamlashtirgan vatandoshimizning xayotini, uning orzu-intilishlarini, bugun va ertangi kunga bo'lgan umidvorligini o'zimcha tasavvur qilishga urinib ko'rardim. O'zimni shu odamning o'rniga qo'yib, uning ko'zi, idroki, tafakkuri, yondashuvi bilan kelajakka qarardim"².

"O'zlikni anglash", "milliy o'zlikni anglash" va nihoyat "umumbashariy o'zlikni anglash" tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, bir-birini taqazo etadi. Zero, inson ota-ona, oila, millat, ahli bashar, boringki, butun borliq bilan munosabatlar asosida o'zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllangan va o'z navbatida, milliy g'oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

Insoniyat falsafiy tafakkuri tarixida o'zlikni anglags masalasi turlicha talqin etilgan. Inson jismining o'tkinchiligi, ruhining esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustinning "tan ruh uchun qafasdir" fikrini eslang) masalasini zohiriy (dunyoviylik nuqtai nazaridan) talqin etganlar inson o'zligini dunyodan yuz o'girib, yolg'izlikda ibodat bilan kun o'tkazgandagina, oddiy so'z bilan aytganda, tarkidunyo qilgandagina topishi mumkin degan fikrga keladilar.

Islom Sharqida dunyoni o'tkinchi bilib, ijtimoiy faollikdan qochish, faqat Olloh zikri bilan yashash tamoyili alohida o'ringa ega. Ularning falsafasida

¹ Choriyev A. Inson falsafasi. –T.,2004, 112-bet

² Karimov I. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin"// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston 1998, 46-b

tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faollikdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilai shug'ullanganlar. Tasavvufdagi "uzlatga chekinish" g'oyasini ham ba'zan to'gridan-to'g'ri tarkidunyochilik ma'nosida talqin etishga urinishgan. Ammo "o'zlikni anglash" bosh maqsadi bo'lgan tasavvuf ahli va tasavvuf g'oyalaridan quvvat olgan ulug' mutafakkirlarimiz insonni insonga, Vatanga, xalqiga bo'lgan, har qanday g'arazdan holi, pok mehrni targ'ib qilganlar.

Xususan, ulug' mutasavvif alloma Bahouddin Naqshband inson o'z-o'zini anglab yetishi orqali Haqni, Haqiqatni taniydi, Alloh vasliga yetishadi, deydi. Ammo hayotining yakuniy maqsadi bu emas. Dilida Alloh ("dilda yor") jo bo'lgan kishi ishga kirishmog'i ("dast ba kor"), ezgu ishlarga qo'l urishi lozim, U aslo eldan, xalqdan o'zini ayirmasligi, aksincha, Orif odam Haqni dilda tutgan holda xalq bilan birga bo'lishi lozim. ("Xilvat dar anjuman")¹.

Shu nuqtai nazardan, Farididdin Attor dunyoni qaynab turgan qozonga mengzab, insonni ana shu "qozon"da qaynashga undagan edi. Shundagina inson pishib yetiladi, komillikka erishadi. Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va yurt qayg'usida yashagan jadid ziyolilar yana o'nlab, yuzlab ulug' ajdodlarimiz hayoti, o'z taqdirilarini xalq, millat, butun insoniyat taqdiri bilan uzviy bog'liqlikda ko'rganlar. Inson o'zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi:

"Odame ersang demagil odame

Onikim yo'k xalq g'amidin g'ami".

Inson "bir parcha go'sht" bo'lib dunyoga keladi va u dastlab tabiiy instinktlar bilan yashaydi. Sekin-asta o'zi yashaydigan oila muhiti keyinroq mahalla, ta'lim olgan bilim dargohi, jamiyat ta'sirida inson dunyoqarashi shakllanadi shaxsga aylanib boradi. Jamiyatdan tashqarida esa, u hayvonot dunyosining boshqa vakillaridan unchalik farq ham qilmaydigan, o'zligini anglashga qodir bo'lmagan oddiy jonzodligicha qoladi. Jamiyatdan tashqarida

¹ Choriyev A. Inson falsafasi. 1-kitob –T., Yangi avlod, 2004, 112-bet

o'zining insoniy sifatlarini saqlab qolgan Robinzon Kruzo yoki Maugli kabi adabiy qahramonlar faqat hayolot mahsulidir.

Mashhur ingliz yozuvchisi Daniel Defoning Robinzon obrazini yaratishga turtki bergan real shaxs - Aleksandr Selkirk tarixi bunga yorqin misol bo'la oladi. O'zi bilan ziddiyatga borgan bu matrosni kema kapitani kimsasiz orolga tushirib qoldiradi. U atigi 4 yildan sal ko'proq vaqtni yolg'izlikda o'tkazadi. Ammo shu qisqa vaqt ichidayoq u odamdek so'zlashni, muomala qilishni unutadi, bir so'z bilan aytganda, butkul insoniy qiyofasini yo'qotadi.

Demak kishining Inson martabasiga erishmog'i, o'zligini tanishida ma'naviy-ijtimoiy muhit va jamiyatda orttirgan tajribasi, bilimlari, tarbiyasi muhimdir. Inson tafakkuriga oila, jamiyatdagi tarixiy shart-sharoit, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy holatlar o'z ta'sirini ko'rsatar ekan, uning o'zligini milliy o'zligini anglashda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati benihoya katta. "Fa'atgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jaxon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin"¹.

Demak, o'zligini anglagan shaxslargina "kim edik?", "kim bo'ldik?", "kim bo'lmoqchimiz?" degan savollarga tinimsiz javob izlaydi. Shunda kishilarimiz milliy madaniyatimiz sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganadi, jahon madaniyatini chuqurroq bilishga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yashashga intiladi. An'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlikda ko'ra biladi. Shundagina xalqimiz milliy o'zligini kundan-kunga teran anglab, ma'naviy yuksalishga erishadi, kelajakka ravshan ko'z bilan qaraydi.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.// Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T. 7. -T.:«O`zbekiston», 1998. -B. 214-71.

1.2 Milliy o`zlikni anglash - ma`naviy taraqqiyot omili.

Milliy o`zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma`rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog`lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. CHunonchi, milliy o`zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko`tarish zaruriyatini anglab, etadi.

Yoshlar qalbi va ongiga milliy o`zlikni anglash tuyg`ularini chuqur singdirish, milliy g`ururni tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifadir. Ushbu vazifa bilan uzviy bog`liq bo`lgan muammo - yoshlarda faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish, hayotga ongli munosabat, doimo ogoh va hushyor bo`lib yashash tuyg`usini oshirishdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, «Erkin fuqaro ma`naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardandir. Boshqacha aytganda, biz o`z xaq-huquqlarini taniydigan, o`z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo`layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg`un holda ko`radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak»¹.

YOshlarni imon-e`tiqodli, milliy g`oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr oqibatni, o`z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kun talabi ekan, zero, fuqarolarni yangicha tafakkur asosida tarbiyalash orqali ularda insonparvarlik tomoyillari, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya`ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish mumkin. YOshlarni o`z millati, dini, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash eng avvalo ularda milliy o`zlikni anglash tuyg`usini

¹ Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda/// Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T. 7. –T., O`zbekiston , 1999 y. 194 b.

shakllantirishdan boshlanadi. Milliy o`zlikni anglash istiqlool sari hamjihatlik, komil ishonch bilan borishdir.

Milliy o`zlikni anglash xalq, mamlakat tarixini, hozirgi kuni va kelajagini yaxlit, bir-biri bilan bog`liq holda anglashdir. Milliy o`zlikni anglash ko`pincha bir mamlakatning, millatning ma`naviy hayoti doirasida bo`ladi. SHu bilan birga, umumjahon tsivilizatsiyasiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Milliy o`zlikni anglashga intilish zaruriyati biror millat uzoq vaqt davomida boshqa xalqlarning taraqqiyot darajasidan iqtisodiy, siyosiy sabablar taqozosi bilan orqada qolganda, mafkuraviy zo`ravonlik asosida qurilgan siyosiy e`tiqodlar jamiyat hayotida chuqur tomir otganda, mamlakatlar, xalqlar mustamlakachilik asoratiga tushib qolgan sharoitlarda yuzaga keladi.

Milliy o`zlikni anglash - millatning o`zini chuqurroq anglash imkoniyatlariga ega bo`lish, tarixi, madaniyati, an`analari, qadriyatlarini tiklashga, rivojlantirishga xarakat qilishdir. Milliy o`zlikni anglash -

- 1) Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish;
- 2) Milliy qadriyatlar: til, tug`ilib o`sgan joy, madaniyatga (keng ma`noda) sodiqlik;
- 3) Milliy manfaatlarni tushunish;
- 4) Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish;
- 5) Vatanparvarlik kabi fazilatlarni sharllantirishdir.

Milliy o`zlikni anglash barcha davrlarda xam jamiyat tarixining asosiy omillaridan biri bo`lib kelgan va u millat manfaatlari va qadr- qimmatini anglashdan, ularni himoya qilish uchun kurashdan boshlanadi.

Sharq va Garbda, Osiyo va Yevropa xalqlari hayotida ham milliy o`zlikni anglash tuyg`usining uyg`onishi, pirovard natijada, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy, o`zaro manfaatli hamkorlikka kirishuviga turtki bo`lgan. Zero, ma`naviy qadriyatlarga, hayotni e`zozlashga undaydigan yuksak tamoyilarga e`tibor susayganda, jamiyat, davlat

taraqqiyotdan to'xtaydi, inqiroz tomon yuz tutadi. Bu Haqda Alisher Navoiy shunday yozgan edi:

To hirsu xavas xirmoni barbod o'lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas,
To zulmu sitam jonga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Demak mamlakatimiz obod bo'lishi, ravnaq topishi, xalqimiz farovonligi uchun ma'naviyat va ma'rifat sohasida, xususan, shaxsni kamol toptirish borasida izchil ish olib borish kerak. Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak .

Insonning ma'naviy yuksaklik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadr-qimmatini xalqning, millatning qadr-qimmatini bilan nechog'lik bog'liq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqyealarga daxldorligini anglaydi.

Yurtimiz mustamlakachilik asoratiga tushgan XX asr boshlarida yurt qayg'usida yongan Fitrat o'lkaning boshiga yog'ilgan balolarda, avvalo o'zini aybdor deb hisoblagani bejiz emas. Amir Temur ruhiga murojaat etib, u shunday yozgan edi: "Yuqorida aytdimkim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim. Sening Turoningni o'zim talatdim, Sening turkligingni o'zim ezdirdim, Sening omonatlaringga xiyonat o'zim qildim"¹.

Shu emasmi komillikning belgisi? Milliy o'zligini anglagan insongina, Fitrat kabi:

"Turonim, sendan ayrilmoq - mening uchun o'limim, Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdir", -deya baralla ayta oladi, Najmiddin Kubro singari jonini saqlashni emas, yov bosgan yurtini himoya qilib, jon taslim berishni afzal ko'radi.

¹ Amir Temur. Temur tuzuklari.-T.: G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hashriyoti. 2011, 13-bet.

Bu o'zlikni anglashning aniq ifodasi, yurt, Vatan uchun o'zini bag'ishlash hamdir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida: «Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» deb ta'kidlaganlar. Demak tarixni bilmasdan, yaxshi bilmasdan turyab, yuksak ma'naviyatga erishish mumkin emas. Sobiq ittifoq davrida millatimiz ongiga shunday g'oya singdirildiki, u o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurishi taqiqlangan edi. Xalqimizning shunday ahvolga tushib qolishiga asosiy sabablardan biri - uning tarixiy xotirasidan judo bo'lishi edi.

Milliy g'oya xalqimizga nafaqat o'z tarixini odilona, obyektiv va xolisona o'rganish imkoniyatini yaratadi, balki millat sifatida shakllanish davridagi murakkab sharoitlardan kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Chunki, milliy g'oya xalqimizning qadimiy va boy tarixidan, ulug` alloma ajdodlarimizning hikmatlari va hayotiy o'gitlaridan, bunyodkor g'oyalaridan, yashash ibratidan ozuqa olgan. Shuning uchun ham, tarixni buyuk murabbiy, tarbiya va ibrat manbai deyiladi.

Dono xalqimizning "Yetti pushtingni bilgin", degan o'gitlari bekorga kelib chiqmagan. Shuning uchun ham qadimgi Sharq donishmandlari insonni gavdasi oldinga, yuzi esa ortga qaratgan holda tasvirlaganlar. Ya'ni, ularning nazdida insoniyat kelajak sari intilar ekan, o'tmishini doimo yodda saqlamogi shart. Bu ko'hna haqiqatni teran anglagan Prezident I.A.Karimov istiqboldagi vazifalarni belgilab berar ekan: "Tarix xotirasi, xalqing, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"¹, deb ta'kidlaydi.

Bu yurtimizning uzoq va g'oyat murakkab tarixida qayta-qayta isbot etilgan haqiqat. Birgina Amir Temur va temuriylar davri tarixi buning yorqin

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida T. 6. -T., O'zbekiston.1997. 66 -bet

isboti bo'la oladi. "Insonlik olamini qanotlari ostinda olgan" (Fitrat) temuriylar saltanati bir necha asrlar mobaynida gullab yashnadi, ulug` allomalarni dunyoga keltirdi, ilm-fan, madaniyatda yetakchilikka erishdi. Buning sababi nimada edi? Javob bitta: Amir Temur mamlakat ijtimoiy-siyosiy bo'hron iskanjasiga tushib qolgan, feodal tarqoqlik va o'zaro nifoq avj olgan bir sharoitda xalqni o'z g'oyalari atrofida birlashtira oldi. "Men o'z saltanatimni dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim, -degan edi ulug` sohibqiron,- saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim"¹.

Amir Temur fikricha: "Davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, bunday saltanatning shukuxi, qudrati va tarkibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang`och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sigi yo'q uyga o'xshaydip. Amir Temur «dinu oyin» deganda adolatli jamiyatni nazarda tutmoqda².

Tarixiy xotira millatga kuch-qudrat bag`ishlaydi, hayotning og`ir sinovlarini munosib yengib o'tishga, o'zligini saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun ham o'zga xalqlarni tobe etishga uringan bosqinchilar xalqni ana shu qudrat manбайдan ayirishga, shahar va tarixiy obidalari, madaniy yodgorliklari va ajdodlarning ma'naviy merosidan mahrum etish orqali tarixiy xotirasini zaiflashtirishga harakat qilganlar.

Yovuz maqsadni ko'zlaganlar, masalan, Turkiston o'lkasini o'z mustamlakasiga aylantirgan Chor Rossiyaning generali M.G.Chernyayev podshoga yozgan maxfiy xatida bildirgan fikri;- "Bu yerda har qanday kushinni to'zgatib yuboradigan bir qudratli kuch bor, bu turkistonliklarning kechmishi xotirasi... Demakki, turklarning birgina o'zini yengish kifoya emas. Ularning xotiralarini, tarixini ham yengmoq kerak" deb yozadi. Darhaqiqat, chor Rossiyasi bosqinchilari har bir o'lkani egallashda o'sha xalq tarixiga hujumning

¹ Temur tuzuklari. – T.,G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at hashriyoti. 2011, 13-bet.

² Temur tuzuklari. – T.,G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at hashriyoti. 2011, 17-bet.

asl mohiyatini tushungan holda faoliyat ko'rsatganligi uning milliy taraqqiyotda kuchini anglaganidan edi.

Xalq milliy ma'naviy merosidan ozuqa oladi, milliy o'ziga xosligini saqlab turishga, milliy manfaatlarni amalga oshirishga va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Bunyodkor g'oyalar madaniy meros va tarixiy xotiraga tayanadi.

Hozirgi zamonda milliy o'zlikni anglash O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim sharti sifatida millat, fuqarolarning chinakam ozodlikni totli mevasi ta'mini bilish, uning qadriga etish, milliy tiklanish va o'zlikni anglashning ahamiyatini anglatadi. Millat manfaatlariga, mustaqil davlat istiqbollariga loyqadlik bilan qarash, unga befarq bo'lish siyosiy kaltabinlik va manqurtlikdir. Milliy o'zlikni anglash zaruratini anglamagan xalq o'z Vatanini taqdiriga ham befarq bo'ladi.

Millatning milliy o'zligini anglash shaxsning milliy o'zligini anglash bilan ham chambarchas bog'liqdir;

- millat (etnos)ga mansublikni anglash;
- mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rnini tushunib etish;
- milliy qadriyatlarga sodiqlik;
- millatning ehtiyojlari va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo'llarini bilish;
- milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

Yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirishda milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his, milliy xarakter kabi tushunchalar ham muhim o'rin tutadi.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchli bo'ladi. Millatlar mavjud ekan milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan

chambarchas bog`liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiyot etib boraveradi.

Milliy ong - shunday g`oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog`liq bo`lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo`nalishlar tomon boshqarib turadi.

Milliy ong yuqori bo`lib, u taraqqiyot jarayonida faollashib borgan taqdirdagina o`z natijasini beradi. Milliy ong milliy manfaatlar sifatida, moddiy va ma`naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o`zga millatlar bilan o`zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Mana shu jarayondagina millatga xos bo`lgan xususiyatlar shakllanadi va bunday xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi.

Milliy ongning ta`sirida shakllangan bunday xususiyatlar milliy manfaatlar va maqsadlarni shakllanishida etakchi omil vazifasini bajaradi.

Qaramlik yillarida ko`plab millatlarning milliy ongini yuksaltirmaslikka katta e`tibor qaratilgan edi. Mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritganidan so`ng milliy ongni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Ommaviy axborot vositalarida milliy g`urur, milliy faxr, milliy iftixor tushunchalari keng qo`llanilib, ular asosan, bir ma`noda ishlatilmoqda, ya`ni, milliy iftixor (faxr) bu - **milliy g`ururdir**.

Milliy g`urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o`z-o`zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qoldirgan moddiy, ma`naviy merosdan, o`z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi, o`sha, millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro`-e`tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Milliy g`urur - shaxs g`ururi - bu faxrdir. Har bir shaxs o`z yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi, ota-ona farzandlaridan, ustoz iste`dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog`bon so`lim bog`idan faxrlanadi va hokazo. O`zligicha qola bilgan odamning g`ururi - bu butundir.

Milliy g`urur har bir millat hayotidagi mavjud moddiy va ma`naviy asoslarda, ob`ektiv va sub`ektiv omillar ta`sirida, individual va ijtimoiy

darajalarda shakllanib, rivojlanib, o`ziga xos shakl-ko`rinishlarda namoyon bo`luvchi ijtimoiy, ruhiy-ma`naviy hodisadir.

Milliy g`urur quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi: millatning yutuqlari, obro`y-e`tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o`z eliga, millatiga jonkuyar bo`lish; o`z millatining moddiy, ma`naviy merosini asrab - avaylash; xalq odatlari, an`analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o`z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Sog`lom milliy g`urur o`zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko`rsatishni taqozo qiladi. Boshqa millat vakillarining izzat va g`ururini kamsitmaydi. Mustaqillik kishilar milliy g`ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas`uliyatini his qilishdek, mazmun bilan boyitilmoqda.

Milliy g`urur (tor ma`noda) - insonlarga xos his-tuyg`u sifati - tushunchaning ifodasidir. Keng ma`noda milliy g`urur ijtimoiy-ma`naviy xodisa tarzidagi talqindir. Milliy g`urur milliy ong bilan uzviy bog`lik holda shakllanib, rivojlanadi. Demak, milliy g`urur shakllanishi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) Milliy g`urur milliy ong ta`sirida rivojlanadi.
- 2) U ob`ektiv va sub`ektiv shart-sharoitlar ta`sirida o`zgarib boradi.
- 3) Milliy g`urur shaxs(lar) g`ururi shaklida namoyon bo`ladi.
- 4) Milliy g`urur siyosiy ong, madaniyat bilan bog`liq holda fuqarolik g`ururi shaklida ko`rinadi.
- 5) Milliy g`urur vatanparvarlik va milatparvarlikda seziladi.

Milliy iftixor - millat ma`naviy kamolotining barcha jihat-larini, merosi va bugungi qadriyatlarini o`z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma`naviy yutuqlar ko`paygan sari O`zbekiston bilan faxrlanish hissi - milliy his shunchalik kuchayib boraveradi.

Milliy his - bu millat manfaati bilan yashash, o`zi kimligini tanimoq. O`zligini tanimagan insonda milliy iftixor so`nadi. Milliylik, millatga mansublik

- bu umumjahon taraqqiyotining qonuniyatidir, milliy g`urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi.

Milliy karakter - o`zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o`ziga xos tomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va joniga joylashib ketgan.

Bunga turli mamlakat mutafakkirlari alohida e`tibor berishgan. Masalan, Yevropa jamiyati hayotida ulkan siljishlar sodir bo`layotgan XVIII asrda mashhur fransuz ma`rifatchisi Jan Jak Russo milliylik milliy xarakter haqida shunday yozgan edi: "Biz tayanishimiz kerak bo`lgan birinchi tamoyil -milliy xarakterdir, har bir xalq milliy xarakterga ega yoki ega bo`lishi lozim; xalqda u bo`lmagan taqdirda ishni unga bunday xarakterni berishdan boshlash kerak bo`lardi"¹. Bir qarashda Russoning fikrida ma`lum bo`rttirish bordek tuyuladi. Lekin uning vatani Fransiya tarixiga nazar tashlansa, bu fikr tarixiy asosga ega ekanligi ma`lum bo`ladi. Dastlab qirol Genrix IV Fransiyaning milliy davlat sifatidagi yaxlitligini tikladi. Uning ishini davom ettirgan va Fransiyaning amalda boshqargan Lyudovig XIII ning birinchi ministri - kardinal Rishelye "Vatan va millat manfaatlari barcha narsadan ustun", degan g`oyani ilgari surdi. Mamlakatdagi ichki nizolarga barham berdi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, o`zi asos solgan Fransuz Akademiyasiga umumfransuz adabiy tili lug`atini tuzishni topshirdi, san`at va adabiyotga homiylik qilib, davlat yaxlitligi va xalq birligini ta`minlashga qaratilgan o`ziga xos milliy g`oyani targ`ib etishga safarbar etdi. Shu tariqa Vatan va xalq yo`lidagi fidoiylikni oliy burch, darajasiga ko`tardi, ishonch bilan aytish mumkinki, Fransiyaning o`sha davrda qudratli mamlakatga aylangani hamda keyingi asrlar mobaynida Yevropaning o`ziga xos madaniy markazs bo`lib qolganligi ayni shu davrda shakllana boshlagan "milliy xarakter" bilan bog`liq bo`ldi. Ana shu tarixni chuqur bilgan Russo: "Har qanday yaxshi o`zgarishlarning umumiy maqsadlari har bir davlatda mahalliy shart-sharoitga

¹ Falsafa lug`ati.-T.,2004,128-b.

ega axolining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarga muvofiq shakl olishi kerak", degan fikrga keldi.

E'tiqod (arab. - ishonmoq, imon, amin bo'lmoq) - inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, xis va iroda vositasida anglangan bilimlar, g'oya va tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushuncha. Milliy g'oya ishonch va e'tiqodga aylangandagina eskilik sarqitlarini supurib tashlashi mumkin. Jamiyatda g'oyaning e'tiqodga aylanishi uning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichdir. SHaxs e'tiqodiga aylangan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun harakat qila boshlaydi. E'tiqod qanchalik kuchli bo'lsa, uni amalga oshirish uchun shunchalik ehtiros bilan harakat qiladi. Kuchli e'tiqod yo'lida shaxs bilimini, kuchini, boyliklarini, hatto hayotini ham ayamaydi. Bunga tarixdan misollar ko'p. O'g'izxon, To'maris, SHiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari shaxslar shular jumlasidandir. Foyaviy e'tiqodning otasi bilim bo'lsa, onasi his-tuyg'udir. Ulardan biri bo'lmasa, g'oyaviy e'tiqod ham bo'lmaydi.

Milliy o'zlikni anglash o'z ichki ziddiyatlariga ham ega. Mansabparastlik, manmanlik, tarafkashlik, guruhbozlik, mahalliychi-lik, millatchilik - bularning xammasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotimiz, mustaqilligimiz, millatlararo totuvlik uchun nihoyatda xatarlidir. Bular milliy ongi, siyosiy madaniyati, milliy g'ururi zaif bo'lgan kishilarga xos xususiyatdir. Do'stlik, xamjixatlik, milliy xamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, dardiga darmon bo'lish-bular bir xil xalq va millat kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizidir. Milliy axillik bor joyda tinchlik, barqarorlik, osoishtalik bo'ladi.

O'zligini anglagan odamda mehr, muruvvat kuchli bo'ladi. Manmanlik kabi salbiy qusurlarni xush ko'rmaydi. "Manmanlik degan edi mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniy, - joxilona kibru g'ururdan paydo bo'ladurgan eng yomon hulqlarning biridirki, kishini har yerda ma'yus va maxjub qilur".

Agar manmanlik kasaliga millat, xalq yoki biron bir din vakillari uchrasa ne oqibatlariga olib keladi? Misollar talaygina. Birgina o'z xalqi ongiga "oliy

irq"qa mansublik g`oyasini singdirishga uringan fashizmning butun insoniyat boshiga yog'dirgan balolarni yoki buyuk davlatchshshk shovinizmi sobiq Ittifoqda yashagan elat va xalqlarga keltirgan azob-uqubatlarni eslash kifoya. Ayrim siyosatdonlar butungi kunda ham diniy, irqiy, milliy ziddiyatlarni avj oldirishga harakat qilayotgani va oqibat o'laroq dunyoning turli chekkalarida olov alangalana yotgani barchaga ma'lum.

Mashhur fransuz gumanist yozuvchisi fashizmga qarshi urushda jonini fido qilgan Antuan desent Ekzyuperi qayg'u va hasrat bilan odamlarni bir-biridan ayiradigan tajovuzkor millatchilik, irqchilik mustamlaka bosqinlari va urushlar haqida fikr yuritib: "Turli sivilizasiyalar bir-biridan farqlanishi yomon emas, ... daxshatlisi, ularning bir-birini yeyishga harakat qilishidir", - degan edi. Ko'pni ko'rgan, eng og'ir ishlarni zimmasiga olishdan qo'rqmagan Sent Ekzyuperi insonning o'zligini anglashni ahli bashar oldidagi mas'uliyat hissi bilan bog'laydi. "Inson borlig'i - bu mas'uliyat sezishingdir, yozadi u, o'zingga aloqasizday tuyulsa ham qashshoqlik oldida andisha qilishingdir. O'z gashtingni qo'ya turib, dunyodagi bunyodkorlikka ko'maklashganingni xis etishingdir"¹. Lo'nda qilib aytganda, o'zga millat va xalqlarni kamsitgan millat hech qachon buyuk bo'lolmaydi. Buyuk Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi:

"Naf'ing agar xalqa beshak erur,

Balki bu naf o'zingga ko'prak erur".

Maxalliychilik milliy birlik va birdamlikka putur etkazadi, millatni bo`lib, parchalab, milliy nizolarni kuchaytirib yuboradi. Milliy birlikka tahdid solayotgan banday xavf-xatarlar bartaraf etilmas ekan, mustaqilligimizni tinch hayotimizni ko`ra olmayotgan kimsalar ulardan o`z maqsadlari yo`lida ustaomonlik bilan fodalanishlari mumkin.

Millatimizni, xalqimizni birlashtirishga xalaqit beradigan har qanday illatlardan xolos bo`lishimiz kerak. Bu ozod va obod Vatan qurish yo`lidagi asosiy talablardan biridir.

¹ Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.,2001, 15-bet

Milliy o`zlikni anglagan, uning sha`nini ulug`laydigan shaxslar buni yaxshi his etadilar va milliy zamindagi ziddiyatlar o`zining qarama-qarshi tomoniga og`ib ketmasligi uchun kurashadilar va shunga erishadilar.

Millat kelajagini ta'minlash yo`lida milliy o`zlikni anglash omiliga befarq qarab yoki uni e'tibordan chetda qoldirib bo`lmaydi. Chunki har bir millatning obro`-e'tibori, or-nomusi, g`ururi, o`zga millatlar oldidagi o`ziga xoslik kabi bir qator ichki ruhiy kechirmalari mavjud bo`lib, u millat manfaatlariga zid bo`lgan munosabatlarga o`zining javobini qaytara olish kuchiga ega bo`lishi bilan xarakterlanadi.

Milliy o`zlikni anglashning millatlararo munosabatlarda turli mojaralarni keltirib chiqarish omiliga aylanishi aksariyat ko`pchilik hollarda ma'naviy ehtiyojlarni etarli darajada qondirmaslik, millatning o`ziga xosligiga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy illatlarning yuzaga kelishi bilan bog`liq bo`ladi. Chunki ma'naviyat – millatning or-nomusi , g`ururi, ichki ruhiy holati, kerak bo`lsa uning borlig`idir. U o`zining millat sifatidagi qiyofasini ma'naviyati orqaligina namoyon eta oladi. Shu sababli ham ma'naviyatga nisbatan bo`ladigan har qanday harakat, millatga nisbatan bildiradigan salbiy munosabat va tajovvuz sifatida qaraladi. Bu esa millatlararo salbiy munosabatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo`ladi. Chunki millat va xalqning ruhi, dunyo qarashi va turmush tarzini ifoda etadigan ma'naviyatga munosabat uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyo qarashi, tafakkuri va ongini o`zgartirishni har tomonlama chuqur o`ylab ish yuritishni talab qiladi. Bu sohada to`g`ri yo`l tutish uchun avvalom bor milliy qadriyatlarga e'tibor qaratish zarur. Har bir ijtimoiy xodisa singari milliy qadriyatlarning o`ziga xos rivojlanish qonuniyatlari mavjud, bu qonuniyatlardan bir yoqlama siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi va millatlararo ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo`lishi mumkin. Ko`rinib turibdiki, shaxs va millatning milliy o`zligini anglash jarayonlarini barqaror rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiluvchi hozirgi davrning o`ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi siyosatna ishlab chiqish zarurdir.

Shuning uchun ham milliy o`zlikni ahqlash orqali

Birinchidan - O`zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e`tiqodi, urf-odati va an`nalarini xurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko`maklashish;

Ikkinchidan - O`zbekiston o`z tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me`yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qilishga erishiladi.

Milliy o`zlikni tarbiyalash, qadrlash, saqlab qolish omili milliy g`oyani mustahkam hayotiy zaminga, xalqimizning chuqur tarixiy ildizlariga tayanishi "Kim edik?" degan savolga javobni tinimsiz izlashga da`vat etib, milliy o`zligimizni teran idrok etishga yordam beradi.

Shuning uchun ham, milliy-ma`naviy tiklanish zamirida fuqarolarimiz ongu-tafakkurini o`stirish zarur. Milliy o`zlik tuyg`usini, uni qadrlashni tarbiyalash lozim. Abdulla Avloniyning aytgan "tarbiya bizlar uchun yo xayot yo mamot, yo najot -yo falokat masalasidir", -degan so`zlari bugungi kunda yangi mazmun kasb etib, o`z dolzarbligini yo`qotmagan.

Milliy o`zlikni anglashdagi tavofutlar, milliy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan ziddiyatlarni milliy davlat, jamiyatdagi siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ma`naviyat va ma`rifat muassasalari, butun jamoatchilik kuchi bilan qadam-baqadam hal etib borish o`z-o`zini va milliy o`zlikni anglayotgan, uni chuqurlashtirayotgan individual va ijtimoiy ongning to`g`ri ijtimoiy yo`nalish olishi uchun kafolatdir.

Xulosa qiladigan bo`lajak,

-milliy o`zlikni anglash, milliy ongni yuksaltirish yagona millat ma`naviy dunyosining qanotidir. Qush baland-balandlarga uchgani kabi inson o`z milliy sha`nini o`z sha`nidek his etadi va uni himoya qiladi. Mabodo milliy o`zlikni anglash bo`lmasa, millat sha`ni tushib ketadi;

-milliy o`z-o`zini anglash real hayot vaziyatlariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo`nalishini tanlash asosida boradi;

-milliy o`zini chuqurroq anglash imkoniyatlariga ega bo`lish, tarixi, madaniyati, an`analari, qadriyatlarini tiklashga, rivojlanti-rishga xarakat qilishdir;

- millat o`zini xalq sifatida, el sifatida anglamasa, u o`zining sha`ni, qadr-qimmatini, or-nomusi haqida qayg`urib, milliy g`urur va iftixor tuyg`usini to`la xis eta olmaydi.

II BOB: MILLIY O`ZLIKNI ANGLASH JARAYONIDA MILLIY MADAVIY MEROSNING AHAMIYATI.

2.1 Yoshlar ongida milliy o`zlikni anglashni shakllantirishda madaviy merosning o`rni.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma`naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning` chuqur o`rganilishi, an`ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san`at, fan va ta`lim ri-voji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o`zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog`liqdir¹.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidla-ganidek,“Biz ma`naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o`zlikni anglashning o`sisidan, xalqning ma`naviy sarchashmalarga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”².

Barcha ijtimoiy-ma`naviy hodisalarning, shu jumladan ob`ektiv va sub`ektiv omillarini jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy-madaniy jarayonlar belgilaydi.

¹ Karimov I. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma`naviyat, 2008. 11- bet.

² O`sha joyda. 12- bet.

³ Karimov I.A. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma`naviy kuch-quvvat manbai.Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. -T.: O`zbekiston, 2000. –B. 463-466.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Xalqimizning tarixiy merosi azaliy anʼanalariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir soʻz bilan aytganda, milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning duyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni oʻziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yoʻlida xizmat qilmogʻi darkor»³, deb taʼkidlagan edi.

SHu nuqtai nazardan jamiyatimiz hayotida, kishilarimiz ongi va qalbida oʻtmish madaniy meros va milliy maʼnaviy qadriyatlarimizni tiklash hamda oʻrganib, oʻzlashtirish gʻoyat muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi va rahbarligida benihoya boy va rang-barang tarixiy merosimizni tiklash, ulardan jamiyatimizni maʼnaviy yuksaltirishda, gʻoyaviy-mafkuraviy ishlarni rivojlantirishda samarali foydalanishning umumnazariy-metodologik asoslari hamda amaliy-tashkiliy, tarbiyaviy yoʻl-yoʻriqlari ishlab chiqildi. “Kim boʻlishidan qatʼiy nazar, jamiyatning har bir aʼzosi oʻz oʻtmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yoʻldan urush, har xil aqidalar taʼsiriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka oʻrgatadi, irodasini mustahkamlaydi”¹.

SHular asosida bugungi kunda yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda yuksak maʼnaviyat, intellektual salohiyat va milliy gʻururni shakllantirish taʼlim-tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. “Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq maʼnaviy boyligining ildizlariga eʼtibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab toʻplangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan oʻtgan. Insonlarga ogʻir damlarda madad boʻlgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani koʻz qorachigʻimizdek asrash va yanada boyitish”².

Ushbu vazifani toʻla roʻyobga chiqishida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va maʼnaviy merosni oʻrganib, oʻzlashtirish, ularni maʼnaviy taraqqiyotimizdagi oʻrnini teran anglab etish muhim oʻrin tutadi.

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz. T.7.-T.: Oʻzbekiston 1998. 131-b.

² Karimov I. Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, 2008. –B. 70.

SHunga ko`ra, hozirgi sharoitda milliy o`zlikni rivojlantirishda madaniy merosning o`rni quyidagi omillar bilan belgilanadi.

1. Xalqimizning haqqoniy tarixi, boy madaniy merosi va milliy ma`naviy qadriyatlari hamda ularni tiklab, rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilgan ishlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglash;

2. Respublikamiz ta`lim-tarbiya tizimida yaratilgan keng imkoniyatlar va hozirgi davr talablaridan kelib chiqib tarixiy meros bilan uzviy bog`liq jihatlarini o`qitishning zamonaviy uslub-vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish;

3. Ta`lim-tarbiyada madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi ishlarni milliy taraqqiyot manfaatlari asosida uzluksiz rivojlantirib borish.

Dunyodagi har bir inson, millat, jamiyat ma`naviyati va mafkurasining real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy asos-manbalari hamda uni rivojlantirish usul-vositalari o`ziga xosdir. Masalan, ba`zi xalqlarning ma`naviyati, ruhiyati, milliy g`ururi, ko`p jihatdan, ular yashayotgan mamlakat (davlat)ning moddiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy kuch-qudratiga asoslansa, boshqa ba`zilariniki, umuman, ma`naviy-madaniy jarayonlar bilan bog`liq. SHu nuqtai nazardan bizning xalqimizda milliy ma`naviyat va mafkuraning shakllanib, rivojlani-shida o`tmish va bugungi ma`naviy-madaniy jarayonlar asosiy rol o`ynaydi.

Keyingi to`rt-besh asrlar mobaynida rus, nemis, frantsuz, ingliz kabi qator millatlarning umumiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan bog`liq holda boshqa millatlarga rahna soluvchi ulug` millatchilik va buyuk davlatchilik shovinizm ruhi bilan birga shakllanib, taraqqiy qilgan bo`lsa, SHarqdagi deyarli barcha xalqlarniki an`anaviy milliylikni saqlab, muhofaza qilishga qaratilgan ijobiy ma`nodagi millatchilik hamda milliy mustaqillik va taraqqiyot g`oyalari bilan rivojlanib kelmoqda. Binobarin, har bir xalqning g`oyaviy, ma`naviy-mafkuraviy taraqqiyoti o`ziga xos real ijtimoiy-tarixiy asoslarga ega bo`lib, uning rivojlanib, yuksalishi yoki pasayib, barham topishi to`g`ridan-to`g`ri ana

shu omillarga bog`liq. Bunga dunyodagi xalqlarning o`tmishi va bugunidan ko`plab misollar keltirish mumkin.

Darhaqiqat, «Qadimiylkda Misrliklardan qolishmaydi»gan (Pompey Trog) xalqimizning madaniy merosi va milliy ma`naviy qadriyatlari hamisha jahondagi ko`pchilik olimlarning diqqat e`tiborini tortib kelgan. Buning asosiy sababi - biz xaqiqatan ham ulkan va boy madaniy-ma`naviy merosga egaligimizdadir. SHuning uchun ham, turli tarixiy davrlarda dunyodagi har xil olim-mutaxassislar o`tmish merosimizni o`rganishga katta qiziqish bilan qarashgan. Ayniqsa, bu jarayon hozirgi kunda yanada kuchaymoqda. SHu tariqa tariximiz, milliy madaniyatimiz turlicha nuqtai nazarlardan turib, har xil talqin qilingan ko`plab manbalar yuzaga kelgan. Biroq, bu o`rinda, ushbu manbalarning aksariyatida xalqimizning o`tmishi (qolaversa, buguni ham) va madaniyati hamisha ham to`liq yoritilib, ob`ektiv baholanmaganligini ta`kidlash joiz. YA`ni, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojida butun SHarq xalqlari, shu jumladan o`zbek xalqi madaniy taraqqiyotini kamsitib, erga urgan «Evropamarkazchilar», SHarq madaniyatini ma`lum ma`noda ideallashtirgan «Osiyomarkazchilar» ham, shuningdek, dunyoning turli joylarida muayyan maqsad-muddaolarni ko`zlab tariximizni yozgan boshqa ayrim olimlar yoki o`tmishimizni soxtalashtirgan mustamlakachi sho`rolar zamonidagi fanlar ham milliy madaniy-ma`naviy merosimizni ko`p hollarda to`liq va xolis yoritmagan. Bu xususda Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, «Xulosa shuki, olis-olis joylarda xalqimiz, mamlakatimiz o`tmishi haqida aytilayotgan mulohazalarning aksariyat qismi soxta, g`ayriilmiydir»¹. Bu boradagi ishlar faqat mustaqillik yillarida to`g`ri izga tushdi. Prezidentimiz rahbarligida xalqimiz tarixiy merosini tiklash bo`yicha benihoya ulkan ishlar amalga oshirildi. O`tmish merosimizga mustamlakachilik davrlaridagi g`ayriilmiy mafkuraviy yondoshuvlarga barham berildi. Zero, xalqimizning boy o`tmish madaniy merosi va milliy ma`naviy qadriyatlari kishilarimiz ongi va qalbida milliy o`likni shakllantirib, rivojlantirishning g`oyat muhim manbaidir.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.// Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurmoqdami. T. 7. -T. : O`zbekiston, 1999. -B. 138

Madaniy meros - har bir xalqning ajdodlari tomonidan yaratilib, avlodlari hayotida yanada rivojlanib boruvchi moddiy va ma`naviy boyliklar majmuidir. «Har bir davr va avlod o`ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo`lsa, davr va avlodlar ham shunday»¹ bo`ladi. SHu bois madaniy merosning inson, millat, jamiyat hayotidagi o`rni, ahamiyati va qadri, ularga nisbatan munosabatlar bilan bog`liq bo`lib, bu meros har bir avlod tomonidan rivojlantirilib, boyitib borilsa, millatning kelgusi taraqqiyoti yuksalib borishi; unutilib yoki yo`q qilib yuborilsa, milliy madaniyat, binobarin millat ham barham topishi mumkin. SHu nuqtai nazardan, madaniy merosning o`rni kishilarimizning bu merosga nisbatan munosabatlari bilan belgilanadi.

SHuning uchun ham xalqimizning o`zligini o`yg`otib, ruhiy-ma`naviy yuksaltirish va milliy taraqqiyotimizni ta`minlash uchun o`tmish merosimizni tiklash va rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Endilikda ulug` ajdodlarimiz yaratib qoldirgan g`oyat boy va rang-barang moddiy hamda ma`naviy meroslar tiklanib, xalqimiz hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Xususan:

- xalqimizning o`tmish hayoti, milliy ongi, madaniyati va tafakkuri aks etgan xalq og`zaki ijodiyotining yuksak namunalari;
- o`z davrlarida barcha ilm sohalarini beqiyos rivojlantirib, jahon ilm-fani, madaniyati va tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan boy ilmiy meros;
- ajdodlarimizning yuksak badiiy didi va mahoratlari bilan yaratilgan hunarmandchilik, amaliy va tasviriy san`at asarlari, raqslar, kuy-qo`shiqlar, teran milliy qadriyatlar, urf-odat, an`analar;
- o`z hayotlarini yurt ozodligi va xalq farovonligi uchun kurashga bag`ishlagan milliy qahramonlarimiz haqidagi asl haqiqatlar;

¹ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug`at. -T.:SHarq, 2009. -B. 102.

- dunyo me`morchilik san`atining o`ziga xos yuksak ko`rinishini aks ettirgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, SHahrisabz, Toshkent, Farg`ona vodiysi va boshqa hududlardagi noyob tarixiy yodgorliklar.

Ular biz uchun faqat o`tmishdan qolgan yodgorliklarga emas, balki ajdodlarimizning mehnati, aql-idroki va tafakkurining ulkan yutug`i, bebaho boyligimiz, ma`naviyatimiz va milliy mafkuramiz shakllanishining bitmas manbai hamdir. “Buyuk tsivilizatsiya va madaniyat beshigi bo`lgan, ko`hna va hayratomuz tarixni o`zida mujassam etgan Vatanimizdagi bebaho yodgorliklar, osori atiqalar haqida so`z yuritar ekanmiz, shu zaminda yashayotgan barcha insonlar ularni avvalo xalqimiz dahosining yorqin namunasi, ta`bir joiz bo`lsa, uning yuksak ma`naviyatiga qo`yilgan muazzam haykallar deb qabul qiladi”¹.

SHunga ko`ra, o`z taraqqiyotida juda qadimiy ildizlarga ega:

- ona tilimiz va u bilan bog`liq yozma ijodiyotimiz namunalari - adabiy merosni;

- jahon ilm-fani va tafakkuri taraqqiyoti tarixida katta o`rin falsafiy merosni;

- turli tarixiy davrlarda yaratilgan moddiy merosni;

- xalqimizning ruhiy-ma`naviy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega diniy qadriyatlarni;

- ko`p asrlar davomida shakllanib, mustaqillik yillari yangi bosqichlarda rivojlanayotgan yuksak milliy urf-odat, an`analarni hamda ma`naviy madaniyatimizni kishilarimiz tomonidan chuqur o`rganib, o`zlashtirishi g`oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy o`zlikni anglash tuyg`usini shakllantirishda xalqning madaniy merosi, milliy qadriyatlari, ulug` mutafakkirlarning ibratli hayoti muhim. jumladan, «Avesto», «O`rxun-Enisey bitiklari», «Qutadg`i bilig», «Devonulug`atit turk», «Hibbatul haqoyiq», «Devoni hikmat», «Temur tuzuklari», Alisher Navoiyning 20 jildlik to`la asarlari to`plami, «Boburnoma», «Turkiy guliston yoxud axloq» singari ma`naviy merosimizning ko`plab durdonalari,

¹ Karimov I. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma`naviyat, 2008. –B. 78.

«Alpomish», «Guro`g`li», «Ravshan», «Avazxon» kabi o`nlab dostonlar hamda turli ertaklar, maqollar, matallar, latifa, qiziqchilik asarlari; Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad YAssaviy, Burxoniddin Marg`inoniy, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Abdulla Qodiriy va boshqa buyuk allomalar; To`maris, SHiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Dukchi (Madali) Eshon, Nomoz botir kabi tarixiy shaxlar jasurligi o`zbek xalqining milliy iftixori bo`lib qoladi.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o`tmish, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz «Bizning qadimiy va go`zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e`tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulammolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog`liq bilimlarning tarixan yuqori bosqichga ko`tarilishida ona-yurtimizda tug`ilib kamolga yetgan ulug` allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g`urur va iftixor bag`ishlaydi»¹, - deb ta`kidlaydi.

Xalqning ma`naviy-ahloqiy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O`zbekistonda huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilganidek, “davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g`amxo`rlik qiladi”.

Bu g`amxo`rlikka javoban ”fuqarolar O`zbekiston xalqining tirixiy, ma`naviy va madaniy me`rosini avaylab - asrashga majburdir, deb ko`rsatilgan².

¹ Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T. 7. –T., O`zbekiston , 1999 y. 195- b.

² O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T. “O`zbekiston” 2012, 18 bet.

Ko`p millatli O`zbekiston davlatining yuksak taraqqiyot bosqichlariga erishishidan bu erda yashayotgan kishilarning hammasi manfaatdordir. SHuning uchun mamlakatimizning ham moddiy-iqtisodiy, ham ruhiy-ma`naviy jihatdan qanday rivojlanishini shu erni vatan qilgan barcha xalq va etnik birliklarning, xususan o`zbek xalqining ma`naviy-ma`rifiy darajasi, intellektual salohiyati belgilaydi.

Milliy o`zlikni anglash bilan bevosita bog`liq o`zbek tili va uning mustaqil taraqqiyoti xalqimizda, kishilarimiz ongi va qalbida ona tilimiz bilan bog`liq og`zaki va yozma ijodiyotimiz namunalari ham katta o`rin tutadi.

Ma`lumki, o`zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o`rtasidagi ruhiy-ma`naviy bog`liqlik til orqali namoyon bo`ladi. “ Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jazibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”¹.

Ona tilimiz asrlar bo`yi xalqimiz tomonidan zargarona sayqal berilib, shunday mukammal qilib yaratilganki, u orqali har qanday ma`no va tushunchalarni, ularning eng nozik va harir jihatlarigacha aniq va tiniq ifodalash mumkin. Ya`ni necha ming yillar davomida xalqimiz ongi to`lishib boravergan, unda hosil bo`lgan tushunchalarni o`z tub so`zlarimiz bilan ham, o`rnida jahon tillariga oid so`zlar bilan ham, yangi-yangi so`zlar yaratish vositasi bilan ham ifodalangan. Shu tariqa til bisoti boyib kelgan. Tilimizdagi g`urur, faxr va iftixor so`zlarini olib ko`raylik. Bular birbiriga yaqin ma`nolarni anglatsada, ayni bir paytda, bir-biridan muayyan darajada farqlanuvchi tushunchalarni ham bildiradi.

SHu bois insonni, u mansub millatning qalbini, ma`naviyatini bilish uchun uning tilini o`rganish lozim. Binobarin millatga, milliylikka e`tibor ham, hurmat ham uning tilini bilishdan boshlanadi.

Afsuski, bugungi kunda, ko`pgina jurnalist, yozuvchi, olimlarimizning fikricha, shu erda tug`ilib o`sib, yashab kelayotgan turli millat va etnik birliklarga, shu jumladan o`zbek millatiga ham mansub ayrim fuqarolarimizning

¹ Karimov I. YUksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma`naviyat, 2008. 54-b.

milliy madaniyat va qadriyatlarni o`zlashtirish nari tursin, taassufki, hamon o`zbek tilini ham bilmasligi, uni o`rganishga intilmasligi, ularning o`zi tug`ilib o`sgan va avlodlari ham davru-davron surib o`tadigan yurtni, umrini yashab bo`lgach, hoki qo`yiladigan shu muqaddas zaminni, undagi asrlar davomida shakllangan madaniyat va xalqni nazariga ilmay, behurmat qilishdan, mustabid mustamlakachilik davrlaridagi kabi, milliy g`ururni oyoqosti qilishdan boshqa narsa emas. Zero, Vatanga, unda yashayotgan xalqqa hurmat uning tili, madaniyati, milliy ma`naviy qadriyatlariga munosabatda bilinadi.

To`g`risini aytganda, qanday millat yoki irqqa mansubligidan, yoki kim bo`lishidan qat`i nazar, O`zbekistonda tug`ilib, shu erda yashayotgan har qanday kishining o`zbek tilini bilmasligi, bu tilni bilish shart emas deb o`ylashi, nafaqat o`zbek xalqini, umuman, turli-tuman millat va dinlarga mansub 30 million aholi yashayotgan O`zbekiston mamlakatiga behurmatlik, uning sha`nini nazar-pisand qilmaslikdir, o`zbek xalqi madaniyatini, g`ururini oyoqosti qilishdir. Ayniqsa, Prezidentimiz I.Karimov alohida ta`kidlab aytganidek, «O`z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go`zal va lo`nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o`tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin»¹.

Umuman, o`zbek tiliga munosabatlardagi qusurlarning muayyan ijtimoiy sabablari bor. Nazarimizda bu sabablarning eng birinchi va asosiysi bizning o`zimizda, ya`ni o`z millatimiz kishilarining ona tilimizga nisbatan munosabatlaridagi loqaydligimizdadir. Bu munosabatlar real ob`ektiv va sub`ektiv asoslarga ega bo`lib, avvalo, jamiyatimizda yashayotgan kishilarning tilga bo`lgan aniq hayotiy ehtiyojlarini qondirish borasida o`zbek tilining ahamiyatiga e`tiborning kamligi - pastligidir. Masalan, qanday millatga mansub bo`lishidan qat`iy nazar, hozir O`zbekistonda o`zbek tilini umuman bilmasdan turib ham, aksariyat sohalarda, hatto davlat idoralaridagi katta mansablarda ham

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida T. 6. –T., O`zbekiston, 1998. 17-b.

ishlab, to`kin-sochinlikda farovon turmush kechirish, jamiyatda yaxshi obro`-e`tiborga ham ega bo`lib yashayverish mumkin degan qarash saqlanib qolmoqda. YA`ni, yurtimizda har qanday kishining yaxshi yashashi uchun, hatto o`zbek millatiga mansub kishi ham, amalda o`zbek tilini yoki xalqimiz tarixi va madaniyatini bilish shart emas, faqat xorijiy tillardan birontasini, masalan, ingliz yoki nemis tilini bilsa kifoya, degan kayfiyat mavjud. Umuman olganda, bu hol jamiyatimiz taraqqiyoti uchun unchalik katta xavf emasdek tuyulishi mumkin. Ammo, bu - tilimizning turmushdagi ahamiyatining past bo`lishi millatimiz, milliylikimiz uchun nihoyatda katta xavf, milliy madaniy taraqqiyotimiz yo`lidagi real tahdiddir. Ona tilimizning turmushdagi ahamiyatining pastligi va shu tufayli kelib chiqadigan ijtimoiy oqibatlar jamiyatimizda yuz berishi mumkin bo`lgan boshqa har qanday ma`naviy-madaniy yoki g`oyaviy-siyosiy inqirozlarnikidan ko`ra haloqatliroq bo`lishi mumkin. CHunki, til - millat, milliylik mavjudligining sharti. Millat ijtimoiy-ma`naviy rivojlanishining asosidir.

Insonning olamni (bu o`rinda, ijtimoiy ma`naviy borliqni) bilish jarayonida paydo bo`ladigan tushunchalari milliy tilda ro`yobga chiqadi, unda ifodalanadi. Har bir insonning milliy madaniyat, qadriyat, urf-odat, an`analarni bilishi, ularning ijtimoiy-ma`naviy mohiyati va ahamiyatini chuqur tushunib, anglashi uchun milliy tilni bilish taqozo qilinadi. Zero, til - millatning, insonning qalbi, deyishadi mutafakkirlar.

Fanlarda to`liq isbotlanganidek, til – ongning ifodalanish shakli bo`lsada, u milliy ong taraqqiyotiga juda katta, ba`zan esa, hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadi. Xususan, bu hol insonlardagi ma`naviy-ruhiy xususiyatlarning milliy xarakterdaligi nazarda tutilsa, aniq-ravshan ko`rinadi. Masalan, o`z milliy tilini bilmaydigan odamda shu millatga xos milliy ong ham shakllanib, rivojlanmaydi. Milliy ong va tafakkursiz esa milliy g`oya va mafkura bo`lmaydi. Binobarin, milliy g`oyaning shakllanishida tilni bilish, uni hurmatlash va qadrlash g`oyat muhim o`rin tutadi. SHuning uchun o`zbek tilini bilmagan, uni hurmat qilmagan kishining qalbi va ongida milliy g`oya shakllanishi dargumon.

SHu nuqtai nazardan, xalqimizning milliy tiklanish va mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo`lidagi dastlabki qadamlar aynan o`zbek tilini tiklash, uning ijtimoiy mavqeini oshirish uchun kurashdan boshlangani bejiz emas. Zotan, millat ma`naviy-madaniy merosining o`zlashtirilishi va milliy g`oyaning qay tariqa rivojlanishida milliy til asosiy omillardan biri bo`lib hisoblanadi.

Bu borada mustabid tuzum davrlarida tilimizga nisbatan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining fojeali oqibatlarini bartaraf qilinayotganligi, o`zbek tilining mustaqil mamlakatimiz hayotidagi o`rni Konstitutsiyada alohida belgilab qo`yilishi (4-modda) va O`zbekiston Respublikasining davlat tili to`g`risidagi qonunning qabul qilinib (1989 y.), unga jamiyatimiz taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib zarur o`zgartirishlar kiritilgani (1998 y.), ayniqsa, ona tilimizning tabiiy imkoniyatlarini to`la tiklash maqsadida lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosining joriy etilishi va boshqa shular kabi ko`p ishlar, hech shubhasiz, xalqimiz ijtimoiy-ma`naviy hayoti va madaniyatining bugungi va istiqboldagi taraqqiyoti uchun juda katta ahamiyatga ega bo`lmoqda.

Ma`lumki, so`nggi bir asr mobaynida tilimizdagi yozuv - alifbo to`rt marta o`zgartirildi. Ba`zi olimlar o`zbek tiliga nisbatan munosabatlardagi illat - qusurlarning asosiy sub`ektiv sabablari sifatida xuddi shu holatni ko`rsatishadi. Bunday qarashlar, xususan hozirgi shart-sharoitlardan kelib chiqilsa, ko`p jihatdan to`g`ridek. YA`ni, haqiqatan ham, tilimizda alifboning o`zgartirilishi xalqimiz hayotida so`nggi yillarda yuzaga kelgan moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni hamda bu holning ilm-fan, adabiyot, san`at va madaniyatimizdagi vorislikka ko`rsatadigan katta salbiy ta`siri nazarda tutilsa, ma`lum ma`noda asoslidir. Ammo, yozuvimizdagi bu o`zgarishning kelgusidagi milliy taraqqiyotimiz uchun ahamiyatini e`tiborga olsak, unchalik to`g`ri emas. CHunki:

1. Xalqimiz uzoq yillar mustamlakachilik ostida yashadi. Bu sharoitda hatto tilimiz ham mustaqil emas edi. Ma`lumki, mustaqil bo`lmay turib, hech qanday milliy til rivojlana olmaydi. SHuning uchun yozuvimizdagi o`zgarish,

avvalo tilimizning to`la mustaqil bo`lishiga, erkin rivojlanishiga imkon beradi. Zero, yozuv tilning mustaqilligiga, tilning mustaqilligi esa millatning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

2. Mustamlakachilik davrida yozuvimizda qo`llanilgan kirill alifbosi ona tilimizning rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatib, uning taraqqiyot imkoniyatlarini cheklab qo`yganligi va yangi alifbo yordamida bu illat bartaraf etilganligi mutaxassis-olimlar tomonidan to`la isbotlangan. SHuning uchun, endi yozuvimizdagi ushbu o`zgarish bilan ona tilimizning erkin rivojlanishi uchun yo`l ochiladi.

3. YAngi alifbodagi yozuvga o`tish mamlakatimizning xalqaro munosabatlari uchun ham katta ahamiyatga ega bo`lib, u xalqimizning jahon hamjamiyatiga, dunyo ilm-fani va madaniyati bilan integratsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratadi.

4. YAngi alifboni joriy etilishining eng muhim jihati yana mustaqillik bilan bog`liq bo`lib, ona tilimizning erkin rivojlanib, jamiyatimizdagi ijtimoiy mavqeni oshirish muammosi amalda shu o`zgarish tufayli ijobiy hal bo`ladi. YA`ni, basharti yozuvimizda avvalgidek, kirill alfaviti saqlanib qolaverganida, tilimiz hech qachon erkin rivojlana olmasligidan tashqari, fuqarolarimizning bu tilga nisbatan loqayd, befarq munosabatlari ham hali-hamon o`zgarmas edi.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyoti, ko`p jihatdan, o`zbek xalqining ma`naviy-intellektual salohiyatiga bog`liq bo`lib, bunga esa, avvalo, milliy ma`naviy-madaniy merosni, yuksak umuminsoniy qadriyatlarni, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlarini chuqur o`rganib, o`zlashtirish orqali, yangi qadriyatlarni yaratibgina erishish mumkin. Binobarin, O`zbekistonda yashayotgan xalqlarning hamisha farovon turmush kechirishlari uchun ming yillar davomida bu erda yaratilgan moddiy va ma`naviy madaniyatni; tarix, til, milliy qadriyatlarni barcha fuqarolarimiz tomonidan keng o`rganib, o`zlashtirish, ularga hurmat bilan munosabatda bo`lib, yanada rivojlantirish zarur.

2.2 Yoshlar ongida milliy o`zlikni anglash tuyg`usini ma`naviy merosga vorislik asosida shakllantirish yo`llari.

Bugungi globallashuv davrida demokratik nuqtai-nazardan yangilanayotgan, o`zgarayotgan va rivojlanib borayotgan hayot yoshlarimizni ham o`ziga xos sinovdan o`ztkazmoqda. Mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yoshlarning o`rni hamda ma'sulligi kuchayib bormoqda. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati: bu borada mavjud qonunchilik, yangi qarorlarni qabul qilinishi va islohatlarni amalga oshirilishi mustaqil O`zbekiston taraqqiyotida mustahkam kuchli tayanch bo`lmoqda va bugun yangicha dunyo qarash, demokratik tafakkurga ega bo`lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanmoqda. Yoshlar – bu o`zlarining ijtimoiy mavqeyi, yoshi, ijtimoiy-ruhiy hususiyatlari bilan ajralib turadigan sotsial demagrafik guruh bo`lib, ularda yoshlik davrining o`ziga xos hususiyatlari bor.

Bu hususiyatlar yoshlarning o`qishi, bilim olishi, ma'lum bir kasb tanlashi, siyosiy va fuqarolik huquqlariga ega bo`lishi, o`z dunyo qarashini shakllantirib, mustaqil mushohada yurita olish, oila qurish va hakoza bilan tavsiflanadi. Yurtimizda samarali tarzda amalga oshirilib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sa siyosiy-huquqiy islohatlar jarayoni yoshlarni himoyalanganlik darajasini ko`rsatishga va mustahkamlanishiga sabab bo`lmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirilgan ekan, ular jamiyatning asosiy bunyodkor va harakatlantiruvchi kuch ekanligini alohida e'tirof etib, yosh avlodni bag`rikenglik ruhida tarbiyalash masalasi ham muhim o`rinda turganligini ta'kidlash o`rinlidir. Chunki bu davrda puxta o`ylangan ma'naviy va ma'rifiy tarbiya tizimining yaratilishi, milliy o`zlikni anglash, yoshlar ongiga ko`p asrlik ma'naviy qadriyatlar, an'analarning qayta tiklanishi tufayli yurt tinchligi, xalq faravonligi, Vatan taraqqiyoti hayotining mezoniga aylangan yosh avlod kamolga etmoqda. Yoshlarning tinch-xotirjam yashashlari, unumli mehnat qilishlari va samarali bilim olishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar ko`rilmoqda.

Bosib o`tilgan tarixiy davrni nimalargadir erishish va yo`qotishga asoslangan murakkab zanjirga qiyoslash mumkin. Uning qismlarini bir-biriga bog`lab turish vazifasini esa har doim o`sib kelayotgan yosh avlod bajaradi.

Yosh avlodni tarbiyalash har bir davrning o`ziga xos bosh masalasi hisoblanib kelingan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz o`z milliyligini, ma'naviy boyligini saqlabgina qolmay, balki ezgulik, taraqqiyot, ma'rifatparvarlik kabi ezgu g`oyalar sari intilganlar. Ayniqsa, bu talab bugungi kunda o`z mazmunini yanada chuqurlashtirgan xolda intellektual etuk yoshlarni faolligi, aql-zakovati, kuch-qudratini quyidagi yo`nalishda ayniqsa, dolzarb qilib qo`ymoqda;

- Birinchidan – haqiqatni bilish;
- ikkinchidan yaxshilik qilish, sahovatli bo`lish;
- uchinchidan – go`zallik yaratish, uni boyitish va asrab-avaylash;
- to`rtinchidan – xalq, millat manfaatlarini ro`yobga chiqarish yo`lida fidoyi bo`lish va ularni himoyalashdir.

Ushbu mazmundan kelib chiqqan xolda, ta'kidlash mumkinki, O`zbekiston mamlakat yoshlarini jismoniy va intellektual resurslarini kuchaytirish, ulardan vatanga sadoqat tuyg`ularini shakllantirish maqsadida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va tashkiliy imkoniyatlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga erishdi.

Taraqqiyotning haqiqiy darajasi mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi. Shunday ekan ko`p millatli o`zbek zaminida ta'lim-tarbiya olayotgan turli millatga mansub yoshlar hayotidagi o`zgarishlar, yurt ravnaqi, rivoji uchun hissa qo`shish niyatida oliy va o`rta maxsus bilim yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar ko`pchilikni tashkil etayotganligi quvonarli xol, albatta. Ayniqsa, hozirgi kunda yoshlar uchun ta'lim, fan, texnika, san'at va madaniyat sohalarida berilayotgan imtiyozlar, keng imkoniyatlardan oqilona foydalana olish yurt ravnaqi, uning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, shu kunga qadar O`zbekistonda Baynalmilal madaniyat markazi turli jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda Qoraqalpog`iston Respublikasi, barcha viloyatlar hamda Toshkent shahrida “Qudratimiz – birlik

va hamjihatlikda”, “Vatan – yagonadir, Vatan – bittadir” shiori ostidagi yuzdan ortiq do`stlik va madaniyat festivallari o`tkazildi, shuningdek, “Tasviriy oyna” Respublika ijodiyot uyi bilan hamkorlikda “O`zbekiston – umumiy uyimiz” mavzuidagi ko`rgazmalar, “Shu aziz Vatan – barchamizniki”, “Yoshlar birlashsa -millat birlashadi”, “Maqsad bir, g`oya bir, Vatan yagona” mavzularida turli millat vakillari hamda mingdan ziyod talabalar ishtirokidagi ilmiy-amaliy seminarlar shular jumlasidandir.

Ayniqsa, bunday tadbirlarni turli millat va elat vakillari zich yashaydigan uzoq ovul va qishloqlarda ham o`tkazilayotganligi,

birinchidan - ko`p millatli o`zbek diyorida o`sib kelayotgan yoshlar orasida ham faol kirib borish imkoniyatini oshirsa,

ikkinchidan – ular qalbida o`z millatiga mehr-oqibat, yashayotgan yurtiga sodiqlik, boshqa millatlarga nisbatan bag`rikenglik tuyg`ularini yanada chuqurroq singdirishga keng yo`l ochib beradi.

Zero, yoshlardagi “iintelektual resurs”ni anglagan holda, ulardan odilona foydalana olish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Bu resurs odamlarning turmush sharoitini yanada yaxshilash, jamiyani taraqqiy ettirish uchun qo`llash mumkin bo`lgan zahira bo`lib xizmat qiladi.

Yoshlarda ana shunday zahira, buyuk qudrat mavjud ekan, ularni o`z vaqtida anglash va qo`llay olishimiz maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina yoshlar qalbidagi vatanparvarlik, uning xavfsizligi va tinchligi uchun kurashish kabi tuyg`ularni o`yg`otish mumkin bo`ladi.

Shu o`rinda masalaning yana bir jihatiga e'tibor berish kerakki, O`zbekiston – ko`p millatli davlat. Demak, ushbu ko`p millatlilik har bir millatning o`z tarixi, dini, an'anasini hurmat qilgandagina, brinchi boshqasidan ustun qo`ymagandagina o`z yaxlitligini saqlab qoladi. Bu vaziyatda yoshlar ongiga ularning tabiatida milliy g`urur hissini to`g`ri shakllantirishiga to`g`ri e'tibor berilishi lozim. Bu tuyg`ularni, ayniqsa yoshlar orasida milliy manmansirash, milliy kekkayishga aylanib ketishiga yo`l qo`yib bo`lmaydi.

Vatanimiz hududida istiqomat qilayotgan barcha millat ahlining milliy g`ururi o`shishini chuqur ilmiy o`zanda olib borish ayni choqda, “Shu aziz Vatan – barchamizniki” degan oddiy va buyuk haqiqatni ularning ongiga chuqur singdira borish hamisha dolzarb masala bo`lib kelaveradi. Zotan, milliy g`urur ijtimoiy hayotga chuqur singib ketsa, uni hech qanday yod g`oya, siyosiy va ma'naviy tazyiqlar yo`q qila olmaydi.

Ana shunday yuksak vazifani o`z zimmasiga olgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi bu borada o`zining samarali faoliyatini olib bormoqda. Jumladan, yurtimizda yashayotgan millatning tarixiy vatanlari bilan aloqalari, milliy bayramlarini va millat hayotidagi tarixiy-shonli sa'nalarini, millatdoshlari orasidan etishib chiqqan buyuk olim va mutafakkirlarning tavallud ayyomlarini nishonlash, milliy til, urf-odat va an'analarni saqlab qolish hamda rivojlantirish va boshqa qator tadbirlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yuqorida sanab o`tilgan tadbirlar, festivallar, forumlar, seminarlar boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan o`rnatilayotgan aloqalar, bir so`z bilan aytganda, yagona g`oya, maqsad yurtimizda tinchlik, hamjihatlik va barqarorlikni saqlash yo`lidagi buyuk va ezgu niyatga xizmat qilishi shuhasizdir.

Yoshlarimizga yaratilayotgan barcha imkoniyatlar, jumladan, maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarining jahon andozalariga mos parpo etilayotganligi, zamon talablari natijasida texnik uskunalar bilan jihozlanayotganligi, ta'lim bilan tarbiyaning bir me'yorda malakali mutaxassislar tomonidan olib borilayotganligi bilan e'tiborlidir. Demakki, har bir amalga oshirilayotgan bunyodkorlik, yangilik ishlari jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo`lgan bo`shliqni qobiliyatli, ayni choqda o`z millati, buyuk ajdodlar me'rosini davom ettirib, bilim va malakalarini Yurt ravnaqi va farovonligi yo`lida safarbar etuvchi, chin insoniy fazilatga ega avlodni tarbiyalash bilan to`ldirish, ular uchun barcha iqtisodiy va ma'naviy salohiyatni safarbar etish mamlakat kelajagi farovonligining poydevori bo`lishi muqarrardir.

Bugungi kunda mamlakatimizda jadallik bilan amalga oshirilayotgan islohatlar va yangilanishlar davrida yoshlarni avaylab-asrash, ularni mushkul

holatlarga tushib qolishidan himoya qilish, umuminsoniy tamoyillar asosida tarbiyalash va kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning ustivor tamoyillaridan etib belgilandi.

Zamonaviy inson ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ongini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanmog'i lozim.

Keyingi yillarda ilm-ma'rifatga katta e'tibor berilayotir. Umumiy ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari keng miqyosda faoliyat ko'rsatib turibdilar. Yangi tipdagi litsey, gimnaziyalarda bolalar bilim olyaptilar.

Kadrlar tayyorlash milliy Dasturimizning birinchi bosqichi 1997-2000-yillarida viloyatimizda 33 ta litsey va 28 ta kollej qurildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli qarorini ta'minlash maqsadida viloyatda dastur va darsliklarni sinovdan o'tkazish maqsadida bitta respublika, 22 ta viloyat tajriba-sinov maydonlari tashkil etildi. Birgina 1999-2000-o'quv yili natijalarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ushbu yilda yangi turdagi ta'lim muassasalari bitiruvchilarining 88 foizi oliy o'quv yurtlariga kirganlar. Bu ko'rsatkich bo'yicha viloyatimiz Toshkent shahridan keyingi ikkinchi o'rinni egallagan.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun uzluksiz ta'limni joriy etdi. O'rta maxsus kasb-hunar kollejini yoki oliy ta'limni tugallab mutaxassislikni egallagan shaxs fan-texnikani o'z faoliyatida qo'llay oladigan bo'ldi.

XXI asrda yashovchi har bir inson dunyoviy bilimlardan puxta egallagan bo'lishi shart. Chunki shiddatli zamon kishilardan turli ehtiyojlarni talab qiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov: "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"-, deganlar.

To'g'ri, kishi ma'naviyatining birlamchi asosini bilim tashkil qiladi, ammo ilm-ma'rifat sharq xalqlari tarbiya tizimi va usluboning o'ziga xos

xususiyatlari, sharqona fazilatlar bilan ahloq va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish va kelgusida uni umumxalq ezgu harakatiga aylantirish asosiy vazifamizdir.

Insonning milliy-ma'naviy ruhini mustahkamlash va imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish barcha ta'lim muassasalarida faol olib borilmoqda. Har qaysi fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qila olishi jamiyatimiz negizi bo'la oladi.

Demak, yuqoridagilarni umumiyLashtirib, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

- ma'naviy barkamol inson-ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan bilimli, ma'rifatli, kishi;
- bilimli kishida qalbi poklik, sahiylik, samimiylik, xayrixohlik, halollik, e'tiqodlilik, mehr-shafqat, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqatlilik fazilatlarini bo'ladi.

O'zbekistonda inson yuksak qadrlanadi. Mamlakamizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat qurish-insonlar baxt-saodati uchundir. mafkurasi xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlari ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

-xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;

-jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;

-ota-ona, mahalla-ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;

-millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;

-kattaga-hurmat va kichikka-izzat;

-mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi-ayol zotiga ehtirom;

-sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

-halollik, mehr-oqibat va va hokazo.

Inson hamisha yaxshilikka muhtoj. Yaxshi kunlar orzusi bilan ona-yurti va farzandlarining istiqbolini kutib yashaydi. Tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'lish, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javobni madaniy merosimiz durdondldridan izlaydi. Ana shunday muammolardan biri ona-yurtga sadoqat masalasidir.

O'zbekistonday davlatda yashashning o'zi katta baxt ekanligi hissini uyg'otish va u bilan faxrlanish, uning ramzlari - bBayroq, gimn va madhiyani qadrlash, ardoqlashni o'rganish. Demokratik tamoyillarga asoslangan qonunlarni hurmat qilish, bularning barchasi Vatanimizga, xalqimizga, o'z millatimizga bo'lgan sadoqatimizni bildiradi.

Inson faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh ato etgan alq-zakovati, imon-e'tiqodi va yuksak ma'naviyati bilan kelajakka ishonch-Vatanining taraqqiyot yo'lini o'ylaydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar farovon hayot qurish uchun xizmat qilmoqda. Odamlarning hayotga, yerga, mehnatga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Xalqni buyuk kelajak, ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish milliy mafkuraning bosh maqsadidir.

